



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
TILLAR FAKULTETI
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI KAFEDRASI

FILOLOGIK TADQIQOTLARNING YANGI
BOSQICHI:
ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA
ISTIQBOLLAR

II AN'ANAVIY XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI

2024-yil, 21-OKTABR

BUXORO – 2024

12. Дыйканов К. Кыргыз тилинин фонетикасы менен лексикасы боюнча методикалык колдонмо. –Ф., 1998
19. Мамытов Ж. Азыркы кыргыз тили. –Б., 1999.
20. Сапарбаев А. Кыргыз тилинин лексикологиясы жана – Бишкек, 1998, 220-б.
21. Өмүралиева С. Кыргыз тилиндеги сөз маанилеринин айрым маселелери. - Ф., 1986.
22. Юдахин К.К. Кыргызча-орусча сөздүк. –Ф., 1965.
23. Юнусалиев Б.М. Киргизская лексикология. –Ф., 1959.
24. Юнусалиев Б.М. Киргизская лексикология, 112-б.
25. Б.М.Юнусалиев Тандалган эмгектер. – Фрунзе: Илим, 1985
26. Юнусалиев Б.М. Киргизская лексикология, 112-б.
27. Б.М.Юнусалиев Тандалган эмгектер. – Фрунзе: Илим, 1985.

IQBOL MIRZONING “BONU” ROMANIDA ERKIN O’XSHATISHLARNING LINGVOKULTUROLOGIK VA LINGVISTIK TAHLILI

Latifova Maftuna Yashin qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti

O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası o‘qituvchisi

latifovamaftuna186@gmail.com

ANNOTATSIYA : Ushbu maqolada o‘xshatish turlari haqida so‘z yuritilgan. Iqbol Mirzoning “Bonu” romanida aks etgan o‘xshatishlar izohlangan. Asardan parchalar keltirilib, tahlil qilingan. Lingvokulturologik terminlardan ham foydalanilgan.

Kalit so‘zlar: individual-muallif o‘xshatishlari, turg‘un o‘xshatishlar, etalon, idioma, sema, leksema, allyuziv kosmonim.

АННОТАЦИЯ: В этой статье говорится о типах сравнения, в романе Икбала Мирзы “Бону” Выдержки из произведения цитируются и анализируются. Используются лингвистические термины.

Ключевые слова: индивидуально-авторские сравнения, устойчивые сравнения, эталон, фразеологизм, сема, лексема, аллюзив-космононимю

ANNOTATION : This article talks about the types of similes. The similes in Iqbal Mirza’s novel “Bonu” are explained. Excerpts from the work are cited and analyzed. Linguistic terms are used.

Key words: individual-author, similes, stable similes, standard, idiom, sema, lexeme, allusive cosmonym.

“O‘xshatishlar o‘ziga xos obrazli tafakkur tarzining mahsuli sifatida yuzaga keladi. Shuning uchun ular nutqda hamisha badiiy-estetik qimmatga molik bo‘ladi. Nutqning emotsional-ekspressivligi, ifodaliligi, ta’sirchanligini ta’minlashga xizmat qiladi. O‘xshatishlarning ikki turi bor: 1) Individual-muallif

o'xshatishlari yoki erkin o'xshatishlar va 2) Umumxalq yoki turg'un (doimiy) o'xshatishlar farqlanadi". [1,30] Iqbol Mirzo "Bonu" romanida ishq- olov, go'zal qiz- pari va hur, umr- oqar suv, jon- qush kabi umumxalq yoki turg'un (doimiy) o'xshatishlardan foydalangan.

Yuqorida mulohaza yuritilgan umumxalq yoki turg'un(doimiy) o'xshatishlar bilan bir qatorda Iqbol Mirzo "Bonu" romanida individual-muallif o'xshatishlaridan ham unumli foydalangan. "Bonu" romanidagi qahramonlar holati, ichki kechinmalari, hayot tarzi, dunyoqarashi, narsa va tushunchalarning ko'rinishi bir qator o'xshatishlar orqali ifodalangan. Bu o'z o'rnida Iqbol Mirzoning badiiy-poetik talqini, badiiy didi mahsuli sifatida yuzaga kelgan va asarning badiiyligiga ta'sir ko'rsatgan.

Adib o'xshatish etalonini atrof-muhitdan olib, tabiatdagi fizik qonuniyatga mutanosib tarzda individual o'xshatish hosil qilgan. Jumladan, "Bonu" romanida armon – zil toshga qiyoslanadi. Asarda keltirilishicha: "Armon zil toshdek bo'lgani uchun ham dil tubiga cho'kadi deydilar... Toshleri tog'dek qalashib ketgan yurakni nima deb atash mumkin?" Bu o'rinda armon zil toshdek deyilib, individual-muallif o'xshatishi hosil qilingan. Ma'lumki, zil so'zi yerdan uzib bo'lmaydigan darajada og'ir narsa yoki yukka nisbatan qo'llaniladi. Lug'atda bu o'xshatish "zilday" shaklida berilib, "og'ir"(juda og'ir), "azobli" semalari orqali izohlanadi.[2,88] Unda "og'ir" semasining orttirma darajasi ko'rinadi. Armon zil toshdek o'xshatishi orqali adresant o'z asarining bosh qahramoni Bonu hayotining fojiali sahifalarini, uning dil iztiroblarini adresatlarga yetkaza olgan. Armonni toshga qiyoslash an'anaviylik kasb etadi, uni zil toshga mengzash shu bilan bir qatorda fizik qonuniyatga xos ravishda zil toshning dil tubiga cho'kishi erkin, muallif-individual o'xshatishining asl namunasi hisoblanadi. "Tadqiqotlarda, bu xildagi o'xshatishlarda asos ham, timsol ham, odatdan tashqari yoki ba'zida asosning an'anaviy bo'lishi ta'kidlanadi".[3,23]

"O'xshatishlar o'ziga xos obrazli tafakkur tarzining mahsuli sifatida yuzaga keladi. Shuning uchun ular nutqda hamisha badiiy-estetik qimmatga molik bo'ladi. Nutqning emotsional-ekspressivligi, ifodaliligi, ta'sirchanligini ta'minlashga xizmat qiladi. O'xshatishlarning ikki turi bor:1) Individual-muallif o'xshatishlari yoki erkin o'xshatishlar va 2) Umumxalq yoki turg'un (doimiy) o'xshatishlar farqlanadi". [1,30] Iqbol Mirzo "Bonu" romanida ishq- olov, go'zal qiz- pari va hur, umr- oqar suv, jon- qush kabi umumxalq yoki turg'un (doimiy) o'xshatishlardan foydalangan.

Yuqorida mulohaza yuritilgan umumxalq yoki turg'un(doimiy) o'xshatishlar bilan bir qatorda Iqbol Mirzo "Bonu" romanida individual-muallif o'xshatishlaridan ham unumli foydalangan. "Bonu" romanidagi qahramonlar holati, ichki kechinmalari, hayot tarzi, dunyoqarashi, narsa va tushunchalarning ko'rinishi bir qator o'xshatishlar orqali ifodalangan. Bu o'z o'rnida Iqbol Mirzoning badiiy-poetik talqini, badiiy didi mahsuli sifatida yuzaga kelgan va asarning badiiyligiga ta'sir ko'rsatgan.

Adib o'xshatish etalonini atrof-muhitdan olib, tabiatdagi fizik qonuniyatga mutanosib tarzda individual o'xshatish hosil qilgan. Jumladan, "Bonu" romanida

armon – zil toshga qiyoslanadi. Asarda keltirilishicha: “Armon zil toshdek bo’lgani uchun ham dil tubiga cho’kadi deyдилar... Toshлari tog’dek qalashib ketgan yurakni nima deb atash mumkin?” Bu o’rinda armon zil toshdek deyilib, individual-muallif o’xshatishi hosil qilingan. Ma’lumki, zil so’zi yerdan uzib bo’lmaydigan darajada og’ir narsa yoki yukka nisbatan qo’llaniladi. Lug’atda bu o’xshatish “zilday” shaklida berilib, “og’ir”(juda og’ir), “azobli” semalari orqali izohlanadi.[2,88] Unda “og’ir” semasining orttirma darajasi ko’rinadi. Armon zil toshdek o’xshatishi orqali adresant o’z asarining bosh qahramoni Bonu hayotining fojiali sahifalarini, uning dil iztiroblarini adresatlarga yetkaza olgan. Armonni toshga qiyoslash an’anaviylik kasb etadi, uni zil toshga mengzash shu bilan bir qatorda fizik qonuniyatga xos ravishda zil toshning dil tubiga cho’kishi erkin, muallif-individual o’xshatishining asl namunasi hisoblanadi. “Tadqiqotlarda, bu xildagi o’xshatishlarda asos ham, timsol ham, odatdan tashqari yoki ba’zida asosning an’anaviy bo’lishi ta’kidlanadi”.[3,23]

Romanda qalamga olingan qahramonlar sodda qishloq kishilari, samimiy, dilkash insonlar bo’lgani uchun ham muallif tomonidan original individual-o’xshatish namunalarini qo’llanilgan. Asar bosh qahramoning onasi qishloq kutubxonachisi bo’lib ishlagani uchun Bonuning bolalik kunlarining ko’p qismi ana shu kutubxonada o’tardi. Shu boisdan ham kutubxonadagi mitti do’stlari u uchun qadrli bo’lgan. Iqbol Mirzo ularga ya’ni Bonuning mitti do’stlari – sichqonchalarga nisbatan ajib o’xshatish keltirgan. Asarda yozilishicha, *“Men oyoq uchida ularga yaqinlashsam, chiyillashib pol kovagidagi inlariga urib ketishar, bir muddatdan so’ng sedanaday qop-qora ko’zchalarini yaltiratib, mo’ralab qarashardi”*. Qishloq kutubxonasidagi sichqonchalarning ko’zi uchun sedana leksemasi o’xshatish etaloni sifatida berilishi kutilmagan qiyosni yuzaga keltirgan. Boshqa asarlarda uchramaganligi uchun ham ajralib turadi, shu bilan bir qatorda xotirada muhrlanib qoladi. Romanni o’qish davomida asosan qishloq hayotiga oid tasvirlar keltirilgani uchun ham tabiat hodisalari, yillar, fasllar, oylar, kunlar almashinuviga doir individual- muallif o’xshatishlari hosil qilingan. Asarda shunday yozilgan: *“Shu tariqa kunlar imillab, oylar sudralib, yillar chopib o’taverdi”*. Kunlarning o’tishiga nisbatan imillab ravishdoshi, oylar almashinuviga nisbatan sudlarib ravishdoshi, yillar o’tishiga nisbatan chopib ravishdoshi qo’llanishi orqali antropomorfizm yuzaga kelgan.” Lingvokulturologiyaning termini hisoblangan bu hodisa hayvonlar, tabiat hodisalari, mifologik mavjudodlar va predmetlarga odamga xos ruhiy va jismoniy belgilarni ko’chirishdir”. [4,21] Iqbol Mirzo qalamiga mansub ijod namunasida bunday o’xshatish turlarining bo’lishi, shubhasiz, yozuvchining yuksak mahoratidan darak beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Sh.Usmanova Lingvokulturologiya T.: 2019
2. N.Mahmudov, D.Xudoyberganova O’zbek tili o’xshatishlarining izohli lug’ati. T.: “Ma’naviyat” 2013
3. G.U. Jumanazarova Fozil Yo’ldosh o’g’li dostonlari tilining lingvopoetikasi (leksik-semantik, lingvostilistik tahlil). Filol. Fan. Dok. (DSc) dis – T.: 2017

4. D.Xudoyberganova. Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug'ati. T.: "Turon zamin ziyo" 2015 21-bet
5. M.Yo'ldoshev. Cho'lpon so'zining sirlari. T.: "Ma'naviyat" 2002
6. Iqbol Mirzo. Bonu T.: "Sharq" 2020
7. [AYRIM O'XSHATISHLARNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI](#) DN Qurbonovna - Journal of new century innovations, 2024

"BONU" ROMANINING LINGVISTIK JIHATDAN TAHLILI

Latifova Maftuna Yashin qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti

O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi

latifovamaftuna186@gmail.com

Qomilboyeva Nuquljon Ixtiyor qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-kurs talabasi

ANNOTATSIYA : Ushbu maqolada o'xshatish turlari haqida so'z yuritilgan. Iqbol Mirzoning "Bonu" romanida aks etgan o'xshatishlar izohlangan. Asardan parchalar keltirilib, tahlil qilingan. Lingvokulturologik terminlardan ham foydalanilgan.

Kalit so'zlar: individual-muallif o'xshatishlari, turg'un o'xshatishlar, etalon, idioma, sema, leksema, allyuziv kosmonim.

АННОТАЦИЯ: В этой статье говорится о типах сравнения, в романе Икбала Мирзы "Бону" Выдержки из произведения цитируются и анализируются. Используются лингвистические термины.

Ключевые слова: индивидуально-авторские сравнения, устойчивые сравнения, эталон, фразеологизм, сема, лексема, аллюзив-космононим

ANNOTATION : This article talks about the types of similes. The similes in Iqbal Mirza's novel "Bonu" are explained. Excerpts from the work are cited and analyzed. Linguistic terms are used.

Key words: individual-author, similes, stable similes, standard, idiom, sema, lexeme, allusive cosmonym.

Asarni o'qish jarayonida muallif-individual o'xshatishlari e'tiborimizni tortishi tabiiy. O'zaro aloqadorligi bo'lmagan leksemalarni mohirona qo'llab, takrorlanmas qiyoslash hosil qilingani va Zuhro yulduzi o'xshatish etaloni sifatida tanlab olingani romanni badiiy qiymatini oshirgan. Asarda keltirilishicha:"... Zuhro yulduzidek lo'ppi paxtalarni chaqqon terimchi qo'llar etaklarga qamab, borgan sari egatlar shumshayib, ko'lanka tushganday xira tortib qolgani kabi bu oq-oydin kunlarim omonat ekani xayolimning bir chetida ham yo'q edi". Zuhro yulduziga lo'ppi paxtalarni qiyos etish allyuziv kosmonim hodisasini yuzaga keltirgan. O'zbek tilida Zuhro yulduziga bog'liq an'anaviy o'xshatishlar aksar manbalarda uchraydi. Bu o'xshatish "go'zal", "yorqin", "to'lin"

MUNDARIJA

Ma'murov Bahodir Baxshullayevich TIL – MILLATNING ENG KATTA MA'NAVIY BOYLIQI	3
Rustamov Akbar Sayfulloyevich TIL – MILLATNING KO'ZGUSIDIR.....	4
Ortiqova Hafiza To'ymurodovna TIL – MILLATNING RUHI.....	6
Muxtorov Erkin Mustafoevich O'ZBEK TILI – MILLIYLIGIMIZ IFODASI.....	8
Rahimov Olim Hamidovich TIL HAR BIR MILLATNING KO'ZGUSI, UNING HAQIQIY SARCHASHMASIDIR	10
Sherzod Normonovich Murodov TIL – ROBITAYI OLAMIYONDIR.....	11
Akramova Gulbahor Renatovna DAVLAT TILI – MILLIY TARAQQIYOT VA SOG'LOM TAFAKKUR MEZONI.....	13

I SHO'BA. ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK NAZARIYASI VA AMALIYOTI

MASALALARI

Ahmadova Umidaxon Shavkat qizi PERIFRAZA VA SO'Z BIRIKMASI.....	15
Bafoyeva Nigora Azimovna, Odilova Ruhshona Arif'in kızı ABDULLAH KADIRI'NIN “GEÇMIŞ GÜNLER” ROMANI'NDA TARİHTE ÇEŞİTLİ YAZAR VE ŞAİRLERİN TAKMA ADLARI.....	17
Bafoyeva Nigora Azimovna, Razzoqova Ferangiz Azamat qizi, SHODMON SULAYMON SHE'RIYATIDA MA'NODOSH SO'ZLARNING O'RNI.....	20
Fayzullayeva Nilufar TURKIY TILLARDA "OLMA TAGIGA OLMA TUSHAR" PAREMASINING EKVIVALENTLIK XUSUSIYATLARI.....	22
Hojiyeva Nigina Hayotovna “MEVA” SO'ZINING ETIMOLOGIYASI HAMDA TARIXIY ADABIYOTLARDA NOMLANISHI.....	27
Jo'raeva Laylo Jiyanqulovna NAVOIY ASARLARIDAGI XALQ-URUG' NOMLARINING LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQI.....	29
Камардинова Уялхан Нурмамаатовна ВЕРБАЛДЫК ЭМЕС СҮЙЛӨӨШҮҮНҮН КӨРКӨМ ЧЫГАРМАЛАРДА БЕРИЛИШИ.....	32
Latifova Maftuna Yashin qizi IQBOL MIRZONING “BONU” ROMANIDA ERKIN O'XSHATISHLARNING LINGVOKULTUROLOGIK VA LINGVISTIK TAHLILI.....	38
Latifova Maftuna Yashin qizi Qomilboyeva Nuquljon Ixtiyor qizi “BONU” ROMANINING LINGVISTIK JIHATDAN TAHLILI.....	41
Мамадкулова Камила Абдухаликовна НОВЫЕ ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ РОДНОГО ЯЗЫКА: ЗАИМСТВОВАНИЯ, СЛЕНГ И ЖАРГОНИЗМЫ.....	43
Mirjonov N.N., Bahriddinov J.Z. SINTAKTIK VOSITALAR ORQALI VUJUDGA KELGAN SHIFOBAXSH O'SIMLIK NOMLARI.....	48
Mirxanova Gulandom, Nurettin Demir TERMINOLOGIYANING TADQIQI VA RIVOJI.....	52